Kielce 2026
Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X

“Xorazm dostonlar” turkumiga kiruvchi “Hurliqo va Hamro” dostonidagi ayrim sonlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili

Charosxon Ismoilova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 241-guruh 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda “Xorazm dostonlar” turkumiga kirgan Hurliqo va Hamro” dostonidagi sonlar lingvomadaniy xususiyatlari va ularning sirli tomonlari haqida bo‘lib, bu xususiyatlarni biz bir, to‘rt, yetti, to‘qqiz, ming kabi sonlar misolida tahlil qildik.

Kalit so'zlar: “Hurliqo va Hamro” dostoni, bir, to‘rt, yetti, to‘qqiz, ming sonlari va lingvokulturologiya.

Kirish

Qadim davrlardan beri insonlar hayotida sonlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ularda sehrli ma’no yashiringaniga insonlar ishonishgan va shunga e’tiqod qilishgan. “Barcha narsa sondan iborat!” degan ibora bejizga paydo bo‘lmagan. Haqiqatan ham hozirgi “raqamli dunyo”da hamma narsa raqamdan iborat bo‘lib turibdi. Kundalik hayotda mobil aloqa vositalari orqali yuboriladigan xabarlardan tortib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ulashadigan rasmlarimizgacha barchasi raqamlardan iborat. Lekin gap hozir bu haqida emas. Ushbu maqolada biz Xorazm dostonlaridan bir bo‘lmish “Hurliqo va Hamro” dostonidagi sonlarning o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Metodologiya. “Insoniyat tafakkurining eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan o‘nlik sanoq usuli qadimgi odamlar uchun olamshumul hodisa hisoblangan. Hozir hatto boshlang‘ich sinf o‘quvchisi birpasda aytib beradigan o‘nta sonning paydo bo‘lishi uchun esa aslida juda uzoq vaqt zarur bo‘lgan. Shuning uchun ham birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar haqidagi qadimiy tasavvurlar xalqimiz xotirasida uzoq vaqtlardan buyon saqlanib qolgan. Keyinchalik xalq ijodiyotida, kundalik turmushda qo‘llaniladigan an’anaviy sonlar paydo bo‘ldi. Bu g‘aroyib xususiyatli sonlar jahonning barcha xalqlari madaniyatida, xususan, folklorida ham mavjud bo‘lib, ular “sehrli sonlar” deyiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida o‘ziga xos an’anaviy badiiy silsila sifatida qo‘llaniladigan uch, to‘rt, besh, yetti, to‘qqiz va qirq sonlari ana shunday tafakkur mo‘jizalari hisoblanadi.”[1:77]

Bilamizki, Sharq adabiyotida mazmun va shakl, tasvir yo‘li, obrazlar olami bilan o‘ziga xos tarzda aks etadi. Unga qo‘shimcha ravishda raqamlar ham alohida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Agar mumtoz adabiyotimizdan joy olgan sonlar “ tilga” kiritilsa, o‘quvchining ko‘z o‘ngizda yana yangi bir ma’no, mohiyat va sirlar olami ochiladi. Bu mohiyatlarni ochilishi uchun esa bugungi kunda ko‘plab olimlarimiz ilmiy ish qilishgan, izlanishlar olib borishgan. Xususan, Sunnatov Jamshidning “Turk adabiyoti va folklorida raqamlar badiiy ramz sifatida” deya nomlangan dissertatsiya ishida sonlarning folklordagi, Navoiy ijodidagi, tasavvufiy yo‘ldagi puxta tahlilni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Gapni bevosita bir raqamidan boshlaydigan bo‘lsak, juda qadimiy davrlarda mavjud zohiriy dunyo shu raqamdan paydo bo‘lgan, u ruhni aks ettiradi va aql, birlik va baxt timsolidir, deb hisoblanilgan.[110] Ushbu raqam din va tasavvuf ta’limotiga ko‘ra dunyoning birligi, mutlaq borliq mazmunida qo‘llanilgan. Ayniqsa, tasavvufiy adabiyot namunalarida Yaratganning yakka-yu yagona va birligini e’tirof etish maqsadida bu songa tez-tez murojaat etilaverishining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida “Biru borim, diydoringni ko‘rarmanmu?” deya Allohga murojaat qilgan. Quyidagi bandda esa “Bir parizod” birikmasi bilan zohiriy ma’noda yagonalik, ya’ni parilar ichra yagona bir parizod nazarda tutilgan.

Yeru ko‘kni xalq aylagan biru bor

Bir parizod kirdi tushima maning

San Karimsan manda yo‘qdir ixtiyor

Ajab savdo soldi boshima maning[9:115]

To‘rt soni xalqimizning madaniy qarashlarini aks ettiruvchi va kundalik turmushda unumli foydalanuvchi raqamlardan biri bo‘lib, bu raqamning mohiyatini dunyo xalqlari mifologiyasi tarixidan anglashimiz mumkin. Xususan, olamning tuzilishi ya’ni uning to‘rt tomoni mavjudligi, bir yil to‘rt fasldan, bir oy to‘rt haftadan iboratligi,oyning har oyda to‘rt marotaba o‘z tusini o‘zgartirishi kabi holatlar bu sonning an’anaviylashishiga sabab bo‘lgan.

Tasavvufda ham insonning to‘rt unsur- suv, tuproq, olov va olovdan yaratilganligi ham ta’kidlanadi. Bundan tashqari olloh tarafidan yuborilgan to‘rt muqaddas kitob- Zabur, Tavrot, Injil va Qur’on kitoblari ham “To‘rt” soni xalq orasida ommalashib qo‘llanilishiga bir sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Haqning tavrotini o‘qigan Muso

To‘rtinchi osmonda o‘tirgan Iso

Oshiqlarning piri Yusuf Zulayho

Bugun mango madad berar kuningdir[9:121]

Namunada qo‘llangan “To‘rtinchi osmon” birikmasini diniy tarafdan izohlaydigan bo‘lsak. Islomiy rivoyatlarga, xususan, Me’roj kechasi voqealariga ko‘ra, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) yetti qavat osmon bo‘ylab ko‘tarilganlarida har bir qavatda turli payg‘ambarlar bilan uchrashganlar. Bu uchrashuvlar islom ta’limotida yuksak ma’naviy o‘rin tutadi va payg‘ambarlar o‘rtasidagi rishtani ko‘rsatadi.

Osmon qavatlari va uchrashgan payg‘ambarlar:

1-osmon: Odam alayhissalom.

2-osmon: Iso va Yahyo alayhissalomlar.

3-osmon: Yusuf alayhissalom.

4-osmon: Idris alayhissalom.

5-osmon: Horun alayhissalom.

6-osmon: Muso alayhissalom.

7-osmon: Ibrohim alayhissalom.

Bu ketma-ketlik va uchrashuvlar islomiy manbalarda, xususan hadislarda batafsil bayon etilgan. Yetti osmon tushunchasi islom falsafasida koinotning murakkab va ajoyib tuzilishini anglatadi.

Yassaviy to‘rt raqamiga murojaat qilganda inson yaratilishi uchun asos bo‘lgan to‘rt unsur: tuproq, suv, olov, shamolni nazarda tutgan va unda “yetti”ga o‘tishga ishora qilgan.[7:74]

Islomda eng ko‘p qo‘llanadigan va turli xil ma’nolarni o‘zida ifodalash uchun xizmat etuvchi sonlardan biri “yetti” sonidir. Ma’lumki, turkiy xalqlarning qadimgi mifologik va diniy qarashlari hamda og‘zaki ijodiyotida bu raqam juda muhim o‘ringa ega hisoblanadi. “Yetti raqami qadimiy turk xalqlari tushunchasida mifologik makonni aks ettirgan. Insonlar fikricha, yer va osmon yetti qatlamdan iborat edi. Bunday ma’lumotlar ilmiy manbalarda ham uchraydi. Qadim zamonlarda bu atama xalqlarning dunyoqarashini anglatgan. Boshqacha aytganda, ular olam yetti qatlamdan iborat deb hisoblashgan: sharq, g‘arb, shimol va janub. Ushbu to‘rt yo‘nalish, makonni belgilovchi, osmon, yer va yer osti olamini o‘z ichiga olgan. Natijada, olimlar V. N. Toporov va V. Yevsyukov tomonidan keltirilganidek, koinot yaratish formulasi shakllangan: 4+3=7. Yer osti olamining yetti qatlamdan iboratligi haqidagi tushuncha barqaror iboralarda saqlanib qolgan: yer osti olami yerning yettinchi qavatida joylashgan. Bu qora kuchlar yashaydigan mifologik makonni aks ettiradi.”[8:118]

Qodir Ollo rahm aylagil holima,

Avvalo Rahimu Rahmon haqqi uchun.

Erlarning tilagin bergil, qulingga,

Yetti qat yer, yetti osmon haqqi uchun.[9:132]

Quyida keltirilgan “Yetti qat yer, yetti osmon” jumlasi tepada aytilganidek osmon yetti qavatdan tashkil topgani va shunga mutanosib tarzda yer ham yetti qatdan iboratligining yaqqol misolidir. Bundan kelib chiqadiki, xalqimiz tasavvurida yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingan, shu o‘lkalarning har birining o‘z egasi bor deya qarashgan. “Sabba’i sayyor” yoki “ yetti kezuvchi” obrazlari ham yetti iqlim haqidagi tasavvurlar yaratilishiga asos vazifasini o‘tagan.[7:28]

Kelib-ketar davlat uchun

Quvonma ko‘nglim, quvonma

Bu besh kunlik umring uchun

Quvonma ko‘nglim, quvonma[9:107]

Ushbu namunada qo‘llangan besh soni xalqimiz turmushida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan sevimli raqamlardan biridir. Ertak va dostonlarda bu raqam ko‘pincha vaqt bilan bog‘liq tarzda “ besh kunlik dunyo”, “besh kun yashamoq” kabi iboralar orqali ifodalanadi. Bundan tashqari folklor namunalarida “ besh kunli dunyo’ iborasi vaqtning o‘tkinchi va qisqaligini anglatadi. Bu ibora bizga qadimgi sanoq sistemasi ta’sirida shakllangan vaqt hisobi bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Bu yerda qo‘llangan “Besh kunlik” iborasi ham aynan vaqtning o‘tkinchi va qisqa ekanligini o‘zida ifoda etgan. Quyida keltirilgan band ham hozir aytgan gapimizning yorqin isbotidir. “ Besh kun omon bo‘lsa tanangdagi g‘arib jon” deya besh kun sog‘ omon bo‘lsang deb keyingi misrada tez kelurman deya fikrimizni dalillamoqda. Ya’ni bu yerda ham vaqtning tez o‘tib ketishi ifodalangan.

Mani ketdi debon bo‘lsa sargardon,

Qiyo boqishingga jonimdur qurbon,

Besh kun omon bo‘lsa tanangda g‘arib jon,

Tez kelurman, parizodim, xo‘sh endi.[9:125]

Avval boshda tangrim olmadi jonim

Otam pandi nasihatin olmadim

Qol deganda qonlar yutib qolmadim

Besh yuz yillik bo‘lsa saning makoning[9:112] Yuqoridagi to‘rtlikda qo‘llangan “Besh yuz yillik” birikmasi endi vaqtning na qisqaligini, na o‘tkinchiligini o‘zida ifodalagan, balki nomutanosib

tarzda endi bu son uzoq vaqtni, balki erishib bo‘lmas, yetib bo‘lmas bir yerni ifodalash uchun qo‘llangandir. Demak, raqamlar faqat muayyan bir mazmun uchun ishlatilmagan

To‘qqiz soni ham xalqimiz hayotida ko‘p qo‘llanadigan “sehrli” raqamlardan biri bo‘lib, folklorda ayniqsa,ushbu songa e‘tibor o‘zgacha. Unga ko‘ra xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlar to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqada dunyoga kelarmish. Quyida berilgan “To‘qqiz oy, to‘qqiz kun” birikmasi orqali insoniyatning Allohning bir mo‘jizasi bilan gumonadan inson bo‘lib dunyo yuzini ko‘rishgacha bo‘lgan fursat ifodalangan.

To‘qqiz oy, to‘qqiz kun mani ko‘targan,

Parvo aylab kamoliga yetkargan,

Saharlarda mango oq sutin bergan,

Mehribon opamg‘a salom degaysan.[9:127]

Bilamizki, ota-bobolarimiz erta turmush qurishgan va erta farzandli bo‘lishgan hamda farzandlarini ham erta turmushga berishgan. Chunki ular bu yoshda ya’ni o‘n to‘rt yoshda balog‘atga yetishgan. Barcha ertak-u dostonlarda kelmish ushbu son balog‘at yoshini bildiruvchi raqam hisoblanadi.

Avval qo‘ydim o‘n to‘rtina kirdi deb,

O‘g‘lonlarim paymonasi to‘ldi deb.

Quvondim man yana o‘lmay qoldi deb,

Judo tushar bo‘ldim yana Hamrohim.

Bilamizki, barcha raqamlar ham o‘zining sirli, sehrli tarafiga ega emas. Biz hamma raqamdan ham muayyan bir sirlilikni topa olmaymiz va ushbu sonlar sirasiga “ming” soni ham kiradi. Ushbu sonning aynan bir “sehrli” tarafi yo‘q bo‘lib lekin doston va ertaklarda asosoiy ahamiyatni beruvchi xislatga egadir. Ya’ni bu son nihoyatda ko‘plikni ifodalagan.

Yor yo‘linda jonim barbod aylayin,

Yirtib yoqa dodi faryod aylayin.

Ming qulimni barin ozod aylayin,

Shifo bering go‘zal yorga, jonlarim. [9:122]

Yoki yana bir o‘rinda:

Firoqing o‘tig‘a kunda yonaman,

Charxi falak aydi yuz ming donaman,

Parimdan ayrilgan g‘arib so‘naman.

Mango bir ochilgan gul deb yig‘larman.[9:104] Ushbu o‘rinda qo‘llangan “Yuz ming” raqami ham oldin aytilgan ming sonining mazmun mohiyatini o‘zida aks ettiradi va bu yerda “minglagan parcha-parcha bo‘lakman” deya ko‘plikni ifodalagan.

Xulosa. Yuqorida aytib o‘tilganidek sonlar qadim davrlardan beri yashab kelmoqda, ammo ularning ortidagi sirlilik borgan sari o‘zini soyaga o‘ramoqda. Insonlar faqat raqamlardan kundalik hayot uchun qo‘llamoqda-yu, ularning qanday kelib chiqqanligi-yu qanday ma’no anglatishinni unutishmoqda. Buning natijasida ba’zi bir ma’nolar bilan birgalikda ma’naviy qadriyatlarimiz ham yo‘qolib bormoqda. Ko‘rinib turganidek hamma narsa bir-biriga uzviy ravishda bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, biz ma’naviy qadriyatlarimizni saqlab qolishni uni avloddan avlodga o‘tkazishni istar ekanmiz ular bilan bog‘liq har bir sonning lingvomadaniy xususiyatlarini bilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Abdirayimov A. “O‘NLIK SONLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI XUSUSIDA” RESEARCH FOCUS: https://doi.org/10.5281/zenodo.7821258
[2] 2.Djumayeva S. “Yetti va to‘qqiz raqamlarining ramziy mohiyati” ttps://doi.org/10.5281/zenodo.10439263
[3] 3.Jo‘rayev M. “Sexrli” raqamlar siri”. Toshkent,1990.
[4] 4.Kushayriy “Risolayi Kushayriy”. Istanbul,1991.
[5] 5.Muhammadaliyeva.Sh “RAMZ VA UNING LISONIY TALQINI” https://doi.org/10.5281/zenodo.8320689
[6] 6.Olimova M. Raqamlar Ramzi: Yettida Ne Karomat Bor
[7] 7.Sunnatov J. “Turk adabiyoti va folklorida raqamlar badiiy ramz sifatida” Toshkent,2013
[8] 8.Xadiyeva R.N. Boshqird tili leksikaning etnomadaniy manolari. Ufa, 2005.
[9] 9. Xorazm dostonlari “Oshiqnoma” turkumi. Urganch-2006